

Theoretical aspects of the formation of strategy and techniques for teaching students of higher education

Aropat NEGMATOVA¹

Andijan State Pedagogical Institute

ARTICLE INFO

Article history:

Received July 2024
Received in revised form
15 July 2024
Accepted 25 July 2024
Available online
15 August 2024

Keywords:

education,
strategy,
methodology,
technology,
content of education,
place of education,
student,
type of education.

ABSTRACT

The article examines the theoretical foundations of strategies and methods of teaching students. Particular attention is paid to the state of the educational process in the institutions of the republic, its historical background, and the approaches of foreign researchers to this topic. Within the framework of the work, three types of training are discussed: scientifically based training (surface approach), developmental approach, and deep approach.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss7/S-pp76-85>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Oliy ta'lim talabalarida o'rganish strategiyasi va texnikasini o'ziga hos hususiyatlarini shakllantirishning nazariy jihatlar

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

o'rganish,
strategiya,
texnika,
texnologiya,
o'rganish mazmuni,
o'rganish joyi,
o'rganuvchi,
o'rganish turi.

Maqolada talabalarning o'rganish strategiyalari va texnikasining nazariy asoslariga ta'riflar beriladi. O'rganishning Respublika ta'lim dargohlaridagi holati, tarixiy asoslari, chet el tadqiqotchilari tomonidan ushbu masalaga yondashuvlarga alohida to'htalib o'tilgan. O'rganishning turlari sifatida dalillarga asoslangan o'rganish (surface approach), tajribalarga yo'naltirilgan o'rganish (elaborative approach), barqaror tushunishga yo'naltirilgan o'rganish (deep approach) kabilar haqida fikr yuritiladi.

¹ Associate Professor, Candidate of Pedagogical Sciences, Department of Pedagogy and Psychology, Andijan State Pedagogical Institute.

Теоретические аспекты формирования стратегии и техники обучения студентов высшего образования

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

обучение,
стратегия,
техника,
технология,
содержание обучения,
место обучения,
обучающийся,
тип обучения.

В статье рассматриваются теоретические основы стратегий и приемов обучения студентов. Особое внимание уделено состоянию образовательного процесса в учреждениях республики, его историческим предпосылкам и подходам зарубежных исследователей к данной теме. В рамках работы обсуждаются три типа обучения: научно обоснованное обучение (поверхностный подход), развивающий подход и глубокий подход.

Respublikada keyingi yillarda barqaror rivojlanishning ustuvor jihatlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan fuqarolarni faoliyatlarini mazmunli tashkil qilinishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hususan maktab bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrovi darajasini oshirish nuqtai nazaridan qator oliygohlarni ochilishi, pedagog kadrlarni tayyorlash uchun pedagogika oliygohlarini faoliyatlarini mustaqil yolg'a qo'yilishi fikrimizning yorqin dalilidir.

“Talaba” so'zining o'zagi “ilmi tolib” ya'ni, “ilmni katta ishtiyoq bilan talab qiluvchi, fanga qattiq qiziquvchi” ma'nosini anglatadi. Mazkur so'z “istovchi” emas, “qattiq turib talab qiluvchi” ma'nosini anglatadi [1]. Lug'aviy jihatdan mazkur so'z “o'ziga berilgan imtiyoz va erkinliklarni katta ishtiyoq va maroq bilan ‘talab’ qiladi” degan ma'noni anglatadi.

Leksiologik jihatdan ingliz tilidagi “student” lotin tilidagi “stadium” so'ziga borib taqaladi. O'z o'rnida “studium” so'zi “qattiq qiziqish, yuksak ishtiyoq” ma'nosini bildirib, undan kelib chiqqan “student” so'zi esa “fanga qattiq berilish, ilmga to'liq bog'lanish” ma'nolarini anglatadi. “Student” so'zining bir ma'nosi sifatida “ma'lum bir sohaga qiziqishi bor inson, tadqiqotchi” o'laroq ta'riflanadi (*a person who takes an interest in a particular subject: a student of the free market*) [2]. Shunday ekan, talabani ilm-fanga oldindan qiziqqan holda uni yanada chuqurroq o'rganib, teran anglash maqsadida oliy ta'lim muassasasiga kelgan inson sifatida qarash o'rinli.

Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni boshlanishi talabalarda yangi o'quv muhitiga moslashishni, ko'nikishni va o'quv jarayonining umumta'lim maktabi, akademik litseyi yoki kasb-hunar kollejidan tubdan farq qiluvchi talablarini bajarishni taqozo etadi. Har bir talabada oliy ta'lim muassasasidagi o'quv muhitini anglashi, moslashishi va qabul qilishi turlicha kechadi. Ba'zi talabalarda oliy ta'limning dastlabki kunlaridan boshlab o'zini ta'lim muhiti uchun “begona” his qilishi, davlat ta'lim standartlarida berilgan talablar darajasida o'rganishi murakkabliklar keltirib chiqaradi. Bunda talabalarda o'z o'quv faoliyatini rejalashtirish, tizimlashtirish borasida tushunmovchiliklarga duch keladi. Ayrim oliy ta'lim muassasalarida “O hafataligi”, “tanishuv haftaligi” tashkil etiladi. Bu esa oliy ta'limda o'qishni endi boshlagan talablar uchun oliy ta'lim o'quv jarayonining barcha tarkibiy qismlarini tushunishiga va bu orqali o'zlarining savollariga javob berishga imkon beradi.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalar ta'lim olishi jarayonida o'zlarida turli o'rganish strategiya va texnikalarini rivojlantirib boradi. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida buning ahamiyati yanada dolzarb bo'lib bormoqda. Talabani o'z mutaxassisligini

mukammal o'rganishi, davlat ta'lim standartlarida belgilangan malaka talablarini bajara olishi ko'p jihatdan o'rganish strategiya va texnikalariga bog'liq. Shuningdek, oliy ta'lim tizimiga kredit-modul tizimini tatbiq etilishi talabaning mustaqilligini ta'minlasa, boshqa tomondan o'quv jarayonini rejalashtirishda tashkilotchilik qobiliyati bo'lishini taqozo etadi.

Oliy ta'lim tizimidagi islohotlarning pirovard maqsadi ham talabalarning innovatsion ta'lim texnologiyalari, o'quv materiallari hamda metodlar yordamida yetuk mutaxassis qilib tayyorlashdan iborat. Talabaning o'rganish uchun sarflagan vaqti va o'rganish samaradorligi hamisha ham qoniqarli darajada bo'lmaydi. Bu esa talabalarning o'rganish strategiya va texnikalarini to'g'ri tanlay olmagani, boshqa tomondan professor-o'qituvchilarning bu xususida yetarli ma'lumot bermagani bilan izohlanadi. Talabalarda o'quv jarayonida metodik kompetentsiya rivojlanib boradi. O'rganish strategiya va texnikasi mazkur kompetentsiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi.

O'rganish jarayoni pedagogik, psixologik, sotsiologik, neyrobiologik jihatdan tadqiq qilinadi. Ahamiyatli jihati shundan iboratki, ta'lim tizimidagi transformatsiya jarayonlari, fan va texnika taraqqiyoti natijasida ma'lumotlar hajmining kengayishi talabalarning intensiv o'rganishini talab etadi. "Avlodlar almashinuvi [3]" nazariyasiga binoan turli davrda yoshlar turlicha o'rganish strategiyalari bilan tavsiflanadi. Shundan kelib chiqqan holda aytish lozimki, tanlangan tadqiqot muammosi dolzarb bo'lib, hozirgi yoshlarning o'qishga bo'lgan munosabati, ularning o'rganishi uchun ta'sir qiluvchi turli salbiy omillarni hisobga olgan holda ularda o'rganish strategiyalari va texnikalarini rivojlantirishning pedagogik-kontseptual mexanizmini takomillashtirishni taqozo etadi.

O'rganish buyuk mutafakkirlarimiz Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sinoning falsafiy va psixologik qarashlarida ham aks etadi. Abu Nasr Forobiy "Ilm va san'atning fazilatlarini" risolasida tabiatni bilishning cheksizligini, bilim bilmaslikdan bilishga, sababiyatni bilishdan oqibatni bilishga, obrazdan subetantsiya (javhar)ga qarab borishni ta'kidlaydi [4].

Farobiy ko'rsatishicha bilish to'rt holat: ob'ektiv mavjudot, turli ruhiy "quvvat" yoki bilish vositalariga ega bo'lgan odam, buyumlarning bilish a'zolariga ta'siri, aks etish jarayoni va shakllarini o'z ichiga oladi. Insonning ibtidosida, avvalo "oziqlantiruvchi quvvat" paydo bo'ladi uning yordamida inson ovqatlanadi. Natijada, "tashqi va ichki quvvatlar" yuzasiga kelib, "tashqi quvvat", ya'ni bevosita tashqi ta'sir natijasida sezgi a'zolari orqali vujudga keluvchi "quvvat"lar besh turli bo'ladi. Bular teri-badan sezgisi, ta'm bilish sezgisi, hid bilish sezgisi, eshitish sezgisi va ko'rish sezgisi. Bularning hammasini Farobiy "hissiyot quvvati" deb atab, hissiy bilish qismlari sifatida qaraydi. "Ichki quvvat"ga esda olib qolish, hayol, tasavvur, his-tuyg'u va nutq (fikrlash) "quvvat"lari kiradi. "Ichki quvvat" deganda Farobiy aqliy bilish bosqichini nazarda tutadi. Shu tarzda Farobiy bilishning ikki bosqichini – hissiy va aqliy bilishni farqlaydi. Tashqi dunyo bilan bog'lovchi sezgining asosiy shakllarini to'g'ri tavsiflab, hissiy bilishga katta e'tibor beradi va uni borliqning tashqi xossalari haqida haqiqiy bilim berish manbai deb qaraydi. Farobiy bilish jarayoni har ikki bosqichga bog'liqligini, aqliy bilish hissiy bilishsiz vujudga kelmasligini alohida ta'kidlash bilan birga, ularning bilish jarayonidagi xususiyatlariga e'tibor berib, o'zaro tafovutlarini ham ko'rsatadi [5].

Ya'ni hissiy bilishda sezgi a'zolari yordamida buyumlar butun konkret sifatlari bilan bilinadi, aqlda esa narsa ana shu konkret sifatlarsiz olinadi. Sezgida buyumlarning muhim bo'lmagan tomonlari aks etadi, aqlda esa sezilgan sifatlarni abstraktsiyalashtirish orqali ularning mohiyati bilinadi. Farobiy aqliy jarayonda jismlar mohiyatini konkret

sifatlaridan ajratilgan holda umumlashtirilishi mumkinligini alohida ta'kidlaydi. Farobiy "Aql ma'nolari haqida" risolasida aql masalalarini chuqur talqin qiladi. U aql, bir tomondan, ruhiy jarayon, ikkinchi tomondan tashqi ta'sir ta'lim-tarbiyaning natijasi ekanligini uqtiradi. Farobiyning fikricha, aql faqat insongagina xos bo'lgan tug'ma quvvat-ruhiy kuch bilan bog'liq. Inson tushunish, fahmlash, muhokama qilish, fikrlash quvvatiga tug'ilishdan ega bo'ladi, bu xususiyatlar bola kamolga eta borishi bilan rivojlanib boradi.

Bilish haqidagi ta'limotni Farobiy o'z asarlarida tushuntirib berishning tarkibiy qismi sifatida qaradi. Uning fikricha, inson tabiat taraqqiyotining mahsuli bo'lib, o'z sifatlari bilan hayvonot olamidan farq qiladi, inson-bilish sub'ekti, tabiat esa – uning ob'ektidir. Farobiy ta'kidlashicha, insonning bilishni va ruhiy qobiliyatlarni miya boshqaradi, yurak esa barcha a'zolari hayot uchun zarur bo'lgan ong bilan ta'minlovchi markazdir, barcha ruhiy "quvvat"lar jumladan bilish qobiliyati muayyan a'zoga bog'liq [6].

Mutafakkir Abu Ali ibn Sino Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatini o'rta asr sharoitida din madaniyati qatoriga olib chiqqan buyuk allomalardan biridir. Uning ilmiy merosi tabiiy-ilmiy, falsafiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlardan tarkib topgan bo'lib, ularda dunyoni bilish masalasini talqin etishda ham bir qancha ilg'or fikrlarni ilgari surgan. Inson bilishlari real ob'ektiv narsalarni bilish yordamida vujudga keladi. Bilish hissiy bilish va tushunchalar yordamida vujudga keladi. His moddiy obrazning oynasi bo'lib, moddiy shakllarning bo'yi, uni bilan birga ifodalanganligi sababli, ularni moddiy asossiz in'ikos eta olmaydi va jismlarni bilolmaydi. Hissiy bilishning ahamiyatini maxsus ko'rsatib o'tish bilan birga, bilishda narsa va xodisalarning mohiyati va qonunlarini o'rganishda tafakkurning roliga katta e'tibor beradi. Sezgiga narsa-hodisalarning ayrim tashqi belgilari, aniq tomonlari bilinsa, aql ularning mohiyatini, ichki tomonlarini abstraktsiyalashtirish va umumlashtirish yordamida bila oladi. Inson aqli turli fanlarni o'rganish yordamida boyiydi, rivojlanadi. Bunda xususan u mantiq ilmiga katta e'tibor beradi. Ibn Sino qadim zamonlardan ma'lum bo'lgan insonning idrok qilishini beshta tashqi his-tuyg'uga (eshitish, ko'rish, hid bilish, ta'm bilish va his qilish) hamda bu tuyg'ularni intuitsiya, instinkt, xohish-istak va h.k.ga birinchi bo'lib ajratgan [7].

Yevropada Avitsenna nomi ostida mashhur bo'lgan Ibn Sino Xamadon yaqinidagi Fardajon qal'asida qamoqda bo'lgan paytida inson ongi va ruhi realligi o'zini- o'zi tahlil qilishini namoyish etishga urinib ko'rgan "Suzayotgan odam" nomli mashhur fikrlash tajribasini yozgan. U jonli inson ongiga, ayniqsa, uning fikriga ko'ra, Allohning ne'mati bo'lgan holda, insonga bu dunyo haqidagi o'z tasavvurlarini tadqiq etish va tartibga solishga imkon beradigan faol aql- zakovatga (intellektga) ko'p e'tibor qaratgan. Bundan tashqari, Ibn Sino potentsial intellekt (inson ichidagi) va intellekt (atrof-muhitga yo'naltirilgan) va dunyoni bilish o'z-o'zidan, mexanik ravishda emas, faqat inson irodasi va intuitsiyasi ishtirokida ro'y berishi haqida yozgan [8]. Abu Ali Ibn Sinoning falsafiy, tabiiy-ilmiy, badiiy, ijtimoiy siyosiy qarashlari bilan birgalikda psixologiya sohasida ilmiy merosi ham g'oyat ko'lamlidir. Ulardan hozirgi zamon psixologiyasida keng miqiyosda foydalanib, ayniqsa, psixologiyadan o'quv adabiyotlari sahifalarida aks ettirib borish yo'li bilan ommalashtirish ishlariga alohida e'tibor berilishi zarur.

O'rganish strategiyasi va texnikasi doimiy tadqiq qilib boriluvchi, takomillashishni taqozo etuvchi tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. Bunda ilg'or xorijiy tajribalarni milliy ta'lim tizimi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda adaptiv qo'llash samarali hisoblanadi. Keng tarqalgan elaborativ, metakognitiv, resurslarga asoslangan o'rganish strategiya va texnikalarini pedagogik amaliyotda qo'llash va natijalarini baholash orqali muntazam ravishda tadbiq etib kelinmoqda. Shuningdek, hozirda keng tarqalgan virtual, masofaviy, elektron ta'lim sharoitida talabalarning yetarli o'rganish strategiyasi va texnikasi

bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmasligi bilan ijobiy natijaga erishish mumkin emas. Talabalarning o'quv mashg'ulotida, mustaqil ta'lim olish, oraliq va yakuniy sinovlar uchun samarali o'qib o'rganishi ularning o'rganish strategiya va texnikalarini o'z o'quv faoliyatiga qo'llay olishi bilan bog'liqdir.

Pedagogik amaliyotda talabalarning o'rganish strategiya va texnikalarini mavjud holatini diagnostika qilish kontseptual jihatdan hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu orqali oliy ta'lim muassasalari talabalarining o'rganish strategiyasi va texnikasi bo'yicha mavjud holatga baho berish va samarali, mos keluvchi strategiya va texnikalarni qo'llash imkoniyatini beradi.

O'rganish strategiya va texnikasi shaxsning ta'limda muvaffaqiyatga erishish uchun juda muhim bo'lib, uning yuqori natijalarga erishishini ta'minlaydi. O'rganish strategiyasi va texnikasi faqat ta'lim muassasasidagi o'quv jarayonida emas, balki shaxsning butun umr davomida o'rganishi, shaxsiy, kasbiy jihatdan rivojlanishi uchun ham zarur hisoblanadi.

"O'rganish strategiyasi" va "o'rganish texnikasi" tushunchasi tahlili uch mustaqil "o'rganish", "strategiya" va "texnika" tushunchalarini alohida tahlil qilish va shundan so'ng "o'rganish strategiyasi" hamda "o'rganish texnikasi" tushunchasini tahlil qilish ilmiy-epistemologik jihatdan to'g'ri hisoblanadi.

"O'rganish" tushunchasiga turli xil izohlar mavjud. "O'rganish" so'zi ingliz tilida "learning" so'zi bilan ifodalanadi. Izohli lug'atda "o'rganish" amaliyot natijasida yuzaga keladigan xatti-harakatlarning nisbatan doimiy o'zgarishi sifatida tavsifalanadi [9]. Yana bir izohda esa "organizmning atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri" sifatida qayd etilgan. "O'rganish" tushunchasi o'quv-me'yoriy hujjatlarda esa "bilim, ko'nikma va malakalarni egallash" sifatida qayd etiladi [10].

"O'rganish" tushunchasi insonga xos oliy xususiyat hisoblanib, ko'plab kognitiv jarayonlarning mahsuli hisoblanadi. Shuningdek, hayvonlar va ba'zi mashinalar o'rganish qobiliyatiga ega hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko'ra xatto ba'zi o'simliklarda ham o'rganish qobiliyati haqida dalillar mavjud. "O'rganish" tushunchasi pedagogikada keng qo'llaniladi va bu doimiy o'rganiladigan dinamik jarayon sifatida tadqiq etib boriladi. "O'rganish" tushunchasi pedagogikadan tashqari psixologiya, neyropsixologiya, amaliy psixologiya kabi fan tarmoqlarida turli jihatlari keng tadqiq etiladi.

O'rganish insonlarning kundalik hayotidagi markaziy faoliyati va jarayondir. Kundalik hayotda odatda o'rganish atamasi bilan quyidagi jadvalda ko'rsatilgandek assotsiatsiyalar paydo bo'ladi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

"O'rganish" atamasining kundalik faoliyatda qo'llanilishi

"O'rganish" atamasining kundalik faoliyatda qo'llanilishi	Mazmuni
O'rganish mazmuni	Xotira qobiliyati (she'r, telefon raqami), ko'nikmalar (yugurish, velosiped minish), qobiliyatlar (til, mantiqiy fikrlash, qaror qabul qilish)
O'rganish joyi	Maktab, sinf, dars, oliy o'quv yurti, kurslar
O'rganuvchi	O'quvchi, talaba, tarbiyalanuvchi, kurs tinglovchisi, malaka oshiruvchi
O'rganish turi	Yod olish, o'rganish texnikasi, mnemonika

“O’rganish” atamasini ilmiy adabiyotlar orqali tahlil qilish natijasida, mualliflar tomonidan umumiy fikrlar bo’lsada, aksar tushunchalar bir-biridan tubdan farq qilganligiga guvoh bo’lish mumkin. Pedagog olim S. Weber “odamlar nafaqat yashab qolish uchun, balki yaxshi hayot kechirish uchun ham o’rganishni o’z madaniyati tarkibiga kiritishi [11]” lozimligini ta’kidlab o’tadi.

H. Gudjons “o’rganish – “tarbiya” dan farqli o’laroq – qadriyatga bog’liq bo’lmagan tushuncha hisoblanib, inson xatti-harakatlari va munosabatlarini o’zgartiradi, “tarbiya” esa rivojlantirish [12]” deb ta’rif beriladi.

Antropologiyada o’rganish – bu ongdagi moslashish va odatlanish sifatida talqin qilinadi [13]. O’rganish jarayoni takroriy xususiyatga ega bo’ib, o’rganuvchining xotirasiga muhrlanib boradi va bu ongda moslashish jarayoniga aylanadi. Shuning uchun, ko’p aqliy mehnat bilan shug’ullanuvchi shaxslarning kundalik hayoti boshqa aqliy mehnat bilan kam shug’ullanuvchilar uchun qiyin va tasavvur qilib bo’lmas deb tushuniladi. Aqliy mehnat bilan shug’ullanuvchilar o’rganishning davomiyligiga moslashganligi va odatlanganligi bilan boshqalardan tubdan farq qiladilar.

Etologlar “evolyutsiya jarayonida rivojlangan va moslashishga xizmat qiladigan “biologik xulq-atvor tendentsiyalari” mavjudligi va bu esa individumning pirovardida tegishli bo’lgan turining omon qolish imkoniyatlarini oshiradi [14]” deb o’rganish jarayoniga tavsif berganlar. Umumiy tarzda o’rganish orqali tirik mavjudotda hayot kechirish faoliyati takomillashib boradi.

O’rganish odamlarning shaxsiyatini va ularning o’zligini anglash qobiliyatini uyg’otish, saqlab qolishga yo’naltiriladi. Pedagogik nuqtai nazardan, “o’rganish” va “o’rgatish” bir-biriga korrespondent tushunchalar hisoblanadi. O’rganish “intelektual-tarixiy olamga kirishning pedagogik ma’suliyatli jarayonidir [15]” deb ta’rif berilgan. O’rganish o’rganuvchining shaxsiyatini rivojlantiradi, o’zini-o’zi anglash jarayonini rivojlantiradi.

Pedagogik lug’atlarda o’rganish “tajriba natijasida yuzaga keladigan, nisbatan uzoq davom etadigan xatti-harakatlarning o’zgarishlari [16]” deb ta’rif berilgan. O’rganish samaradorligi bu xususida ortirilgan tajribalarga bog’liq bo’ladi. O’rganish bilan bog’liq xatoliklar, muvaffaqiyatsizliklardan ham o’rganish mumkin bo’ladi. Shu jihatdan olib qaraganda o’rganish jarayoni, o’rganish bilan bog’liq jarayonlar, o’rganish bilan bog’liq xatolarni pedagogik jihatdan tahlil qilish orqali ularni didaktik resurs deb qarash o’rinli bo’ladi. O’quv jarayonida ham xatolarni tahlil qilish orqali ham o’rganish amalga oshiriladi. Xatolar orqali o’rganish talabalarning kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

O’rganishning eng katta natijasi sifatida tasavvurni keltirib o’tish lozim. Keyingi vaqtda pedagogik amaliyotda “tasavvur kuchi” atamasi keng qo’llanilmoqda. Tasavvur bilimdan ko’ra muhimroq, bilimlar chegaralangan, tasavvur bilan esa butun dunyoni qamrab olish mumkin [17]. Bu jarayonda fikr o’rganishda tasavvurga yo’naltirilganligining muhim jihatini yoritib bergan. “Tasavvur kuchi” esa insonning keng qobiliyat egasi bo’lishini ta’minlovchi, o’z tasavvurlari orqali yangi bilimlar sohasini egallashga yo’naltiradi va bu orqali doimiy o’rganish, izlanishni keltirib chiqaradi.

O’rganish kognitiv jarayon bo’lib, bu jarayon talabalarning kognitiv mustaqilligini qo’llab-quvvatlashi lozim bo’ladi. Kognitiv mustaqillik zamonaviy didaktik yondoshuv bo’lib, talabalarning savol, topshiriq, yoki loyiha orqali cheksiz fikrlashga undashga yo’naltirishni maqsad qiladi. O’quv jarayonida kognitiv mustaqillikni ta’minlash

professor-o'qituvchilarning professionalligiga bog'liq [18]. Pedagogik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ko'p o'quv mashg'ulotlarida talabalarning kognitiv mustaqilligi ta'minlanmaydi. Bunga asosiy sabab sifatida, professor-o'qituvchida talabalar tomonidan bildirilgan erkin fikrlarni baholash, o'quv jarayonidagi interfaol muloqotni maqsadli didaktik boshqarish qobiliyatiga ega emasligi hisoblanadi. O'quv jarayonini didaktik boshqarish kompleks yondoshuvni taqozo etadi. Bu orqali ta'lim maqsadlari samarali metod, vositalar asosida maqsadga yo'naltiriladi.

O'rganishning turlari. O'rganish bosqichlari va o'rganilayotgan fan mazmunga asosan o'rganish turlari qo'llaniladi. Agar biror fanning asoslari yoki xorijiy tilda yangi so'zlar o'rganilayotgan bo'lsa o'rganish faqat dalillarga asoslanadi va avvalgi bilimlarga bog'lash imkonsiz hisoblanadi. Mazmuni talabalarga qisman ma'lum bo'lgan, fanni o'rganishda oldindan tanish bo'lgan bilimlarni faollashtirish imkoniyati mavjud bo'ladi. Shu jihatdan olib qaraganda o'rganish **amaliy, mavjud bilimlarga bog'langan** holda hamda **rivojlantiruvchi** turlarga bo'linadi [19]. Mavjud bilimlarga bog'lagan holda o'rganish samarali hisoblanadi.

O'rganishning uch xil turi mavjud [20]:

Dalillarga asoslangan o'rganish (surface approach): Mazkur o'ranish bir-biriga bog'liq bo'lmagan dalillarni yodlash, tafsilotlarni shakllantirishga ustuvorlik beradi. Fanning qismlariga doir mavzular alohida tahlil qilinadi, avvalgi mavzular takrorlanadi. Bu o'rganish turi fan mazmunini o'zgartirmagan holda mazmunni yetkazish bilan tavsifalanadi.

Tajribalarga yo'naltirilgan o'rganish (elaborative approach): Fan mazmuni mavzu kontekstidan kelib chiqqan holda talabalarning qiziqishlari va tajribalariga asoslangan holda, mavzu xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy qo'llash orqali o'rganiladi. O'rganishni bu turi orqali bir mavzu doirasidagi nazariyalar, dalillar va gipotezalar aniqlashtiriladi. Shuningdek, mavzu doirasidan chiqqan holda kundalik-amaliy faoliyat bilan ham bog'lagan holda o'rganishni ham qamrab oladi.

Barqaror tushunishga yo'naltirilgan o'rganish (deep approach): Bu o'rganish turi talabalarning biror mavzuni "atroficha va chuqur" o'rganishini tavsiflab, mavzuga doir asosiy dalillar yakuniy natija sifatida qidiriladi. Mavzu turli qismlarga bo'linadi va bir butun mazmun hosil qilish uchun turli o'rganish faoliyati orqali birlashtiriladi. Talabalar mavzuga doir o'z munosabatlarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa talabalarga o'rganilgan mavzuni "shaxsiylashtirish"iga olib keladi. Olim bilimlarni "shaxsiylashtirish" deb o'rganilgan bilimlar talabada barqaror qolishi, yetarli ravishda o'zlashtirilganligi, fandagi dalillar bo'yicha individual xulosaga kelishiga nisbatan ishlatadi.

F. Vester [21] o'z ilmiy tadqiqotida 4 xil o'rganish turini keltirib o'tadi.

1. Audutiv o'rganish. Bunday o'rganishda eshitish va gapirish ustuvor omil hisoblanadi.

2. Optik-vizual o'rganish. Bunday o'rganishda ko'rish va kuzatish ustuvor hisoblanadi.

3. Haptik-kinestetik o'rganish. Bunday o'rganishda ushlab ko'rish, bajarish, his qilish ustuvor hisoblanadi.

4. Kognitiv-intelektual o'rganish. Bunday o'rganishda o'qish va o'ylash ustuvor hisoblanadi.

O'rganish turlarini bilish orqali har bir ta'lim oluvchi o'ziga mos kelivchi o'rganish strategiyasi va texnikasini tanlab oladi. Ko'plab ta'lim oluvchilar aralash o'rganish turlariga ega.

Shuningdek, J. Schrader [22] tomonidan 5 turdagi o'rganish turlari keltirilgan.

1. Nazariyaga yo'naltirilgan o'rganish. Bu turdagi o'rganuvchilar ko'p o'qiydilar, nazariy asoslariga qiziqadilar va so'ng amaliyotda qo'llab ko'radilar.

2. Amaliyotga yo'naltirilgan o'rganish. Ular qo'llab ko'rish, amalga oshirishni ma'qul ko'radi va ko'p savollar beradi.

3. Namunali o'rganish. Bu turdagi o'rganuvchilar namuna asosida, ma'lum ko'rsatma orqali o'rganadi.

4. Befarq o'rganish. Bu turdagilar o'rganishni xushlamaydi va faqat zarur bo'lgandagina o'rganadi.

5. Ishonchsiz o'rganish. Bunday o'rganish turidagi shaxslar qo'rquv bilan o'rganadi, o'rganish jarayoni bosim va ikkilanish ostida tashkil etiladi.

Amerikalik psixolog David Kolb o'rganishni 4 ta bosqichga ajratadi va shuning asosida tajribaga asoslangan o'rganishni tavsiflaydi. Mazkur 4 bosqich quyidagilar

1. "Diverging" – aniq tajriba,
2. "Assimilating" – kuzatish va refleksiya,
3. "Converging" – tushunchalarning shakllanishi, muammoning qo'yilishi.
4. "Accomodating" – faol tajriba qilish.

Mazkur bosqichlar takrorlanuvchi xususiyatga ega bo'lib, takrorlanish natijasida o'rganishning samaradorligi ta'minlanadi. O'quv jarayonining o'zi haqida fikr yuritish uchun qo'llaniladigan o'quv tsikli quyidagicha ko'rinishi mumkin:

- O'rganish zarur bo'lgan hajm bo'yicha ishlash;
- Yaxshi va samarali o'rganayotganini tekshirish;
- O'rganganlaridan xulosalar shakllantirish;
- Shakllantirilgan xulosalarga asosan o'rganishga bo'lgan munosabatni o'zgartirish;
- O'rganish zarur bo'lgan hajm bo'yicha samarali ishlash.

Talabalarda o'rganish jarayonini tahlil qilish bu bilan bog'liq bir qator muammoli holatlar mavjudligini ko'rsatadi. Shulardan eng asosiysi "Alibi o'rganish" hisoblanadi. "Alibi o'rganish" katta hajmdagi o'quv materialini qisqa muddatda yodlash, eslab qolishga asoslangan samarasiz o'rganish strategiyasi hisoblanadi. Aslida "alibi o'rganish" huquqshunoslikka doir atama bo'lib, "alibi" so'zi jinoyat qilingan paytda (lahzada) jinoyatchining boshqa joyda bo'lishi [23] tushuniladi.

Pedagogik amaliyotda "Bulimie o'rganish" tushunchasi ham keng qo'llaniladi. Bu o'rganish talabalarining imtixon, sinovlar uchun qisqa muddat ichida o'rganishi bo'lib, imtixon, sinovdan so'ng o'rganganlari tez xotirasidan chiqib ketadi. O'rganishning mazkur turi aynan "Bulimie" deb nomlanishi, shu nom bilan yuritiluvchi kasallik turi bilan bo'g'liq bo'lib, bu turdagi kasallar ovqat ko'p iste'mol qilishi, lekin ularda "ochlik" hissi yo'qolmasligi bilan tavsiflanadi [24].

Tadqiqot jarayonida talabalarni o'rganish bilan bog'liq qator muammolari borligi aniqlandi.

Pedagogik kuzatishlar vositasida hozirgi talabalarda uchrab turadigan o'rganish bilan bog'liq muammolar quyidagilar ekanligini ko'rish mumkin:

1. Talabalarining qat'iy kun tartibiga ega emasligi;
2. Kundalik faoliyatini rejalashtirmaganligi. Ko'p rejalar tasodifan, qisqa muddatda tuzilishi;
3. O'rganishda qat'iyatsizlik;
4. O'rganish uchun har doim ham o'zi mustaqil qaror qabul qila olmaysligi;

5. O'rganish orqali natija uzoqdek tuyulishi va har doim muqobil variantlar qidirishi;

6. Har doim ham "chuqur" va "atroflicha" o'rganish rag'batlantirilmasligiga doir tajribalarning shakllanganligi;

7. Oliy ta'lim muassasalaridagi baholash ko'proq "xotirani tekshirishga" (dalillarni, qoidalarni, atamalarni) yo'naltirilganligi.

Olib borilgan tajribalar mobaynida pedagogika oliy ta'lim muassasalarida pedagogik nazariyalar o'rgatilishi samaradorligi va natijadorligi qoniqarli darajada emasligi aniqlandi. Buning yaqqol misoli sifatida umumta'lim maktablarida pedagogik faoliyatni yangi boshlaganlar o'z amaliyotini kontseptual jihatdan tashkil eta olmasligida ko'rishimiz mumkin. Mazkur muammoli holatni tushunish uchun nazariya nima ekanligini aniqlab olish lozim. Nazariya – bu biron-bir voqea-hodisani, bu voqea zamiridagi qonuniyatlar va tamoyillarni tushuntiruvchi fikrlar majmuidir. Nazariya – bu biron bir hodisaning ilmiy jihatdan tushuntirilishi, u kuzatuvlar, tajribalar yoki boshqa ilmiy yo'llar bilan hosil qilinadi. Masalan, fizikadagi Nyutonning gravitatsiya nazariyasi massaga ega bo'lgan jismning tortishish maydoni hosil qilishini tushuntiradi.

Nazariya – bu ma'lumotdangina iborat bilim emas, balki kasbiy-pedagogik faoliyat o'zagini tashkil etadi. Har qanday fanning asosini nazariyalar tashkil qiladi, o'z navbatida pedagogikaning ham. Masalan, pedagogikada inson qanday o'rganishi, uning miyasi qanday ishlashini tasvirlovchi nazariyalar bor: bihevorizm, kognitivizm, konstruktivizm va boshqa bir qator nazariyalar.

Misol uchun, inson miyasi ma'lumotni qanday qabul qilishini tushuntiradigan "sxemalar nazariyasi [25]"ga ko'ra, yangi ma'lumot va inson miyasidagi mavjud sxema (bilim, tajriba, dunyoqarash) o'rtasida bog'lanish ("ko'prik") hosil qilinmasa, yangi bilimning o'zlashtirilishi samarali bo'lmaydi. Yana bir pedagogikada keng tarqalgan nazariya – 1950-yillarda yaratilgan Blum taksonomiyasi.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda bu nazariyalar pedagoglar tayyorlaydigan pedagogik oliy ta'lim muassasalarida alohida fan sifatida o'qitiladi, ularni bilmasdan maktab o'qituvchisi sertifikatini (litsenziyasini) olish mumkin emas. Va albatta o'quv dasturlari va o'quv materiallari (darsliklar, qo'llanmalar) yaratishda, bevosita dars jarayonida, baholashda bu nazariyalar hisobga olinadi.

Tadqiqot ishi davomida pedagoglar tayyorlashda qaysi nazariyaga asoslanishi bahsli ekanligi, qat'iy javobning yo'q degan xulosa shakllanishiga olib keldi. Hozirda ta'lim tizimiga keng tadbiiq etilayotgan "ta'limda sun'iy intellekt" muhokamasi ketayotgan bir davrda pedagogikaning nazariyalarini kontseptual jihatdan muhokama qilish va bu muhokamali vaziyatlarni pedagogik ta'lim mazmuniga singdirish maqsadga muvofiqdir. Hozirgi kundagi muammolardan biri ba'zi o'qituvchilar talabalarga fanga va sohaga qiziqishlarning yo'q deb ta'kidlashadi. Ba'zi talabalar esa o'qituvchilarning berayotgan ta'limidan ko'ngli to'lmasligidan nolihsadi. Bu muammoli vaziyatga qanday qilib yechim topish mumkinligi, ko'plab ilmiy-amaliy loyihalarning maqsadi bo'lib qolgani sir emas.

AQShda keng tarqalgan nazariyalardan yana biri bu individual tajriba va bilimlarni egallash (mustaqil o'zlashtirish) nazariyasidir. Mazkur nazariyaga binoan shaxsning hayoti va uning voqelikka nisbatan munosabati ko'pincha ko'nikmalarni egallash, bilimlarni o'zlashtirishdan iborat bo'lib, uning samarasi qo'zg'atuvchini uzluksiz ravishda mustahkamlab borilishining mahsulidir. Bu nazariyaning tarafdorlari E. Torndayk va B. Skinnerlar hisoblanadi [26]. A. Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasida ham bilish, o'rganish 5 daraja sifatida turadi [27]. Ta'limda sifat va samaradorlikka qarab yurilayotgan bir vaqtda o'rganish strategiyalarini samarali qo'llash maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Umirdinov A. Talaba do'stinga 78+tavsiya. Toshkent, Iqro nashr. 2021.- 224B.
2. <https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/student>
3. Lepeyko T. I., Blyznyuk P. Generational theory: value-oriented approach. Бизнес Информ 11, 2016. -P. 24-30.
4. Jumaboyev Y. O'zbekistonda falsafa va axloqiy fikrlar taraqqiyoti tarixidan, T., 1997.
5. Jumayeva, N.A. Sharq allomalarining ilmiy merosi: o'quv qo'llanma. – Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2020. – 228 b.
6. Uvatov U. Buyuk yurt allomalari. Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi O'zbekiston; Toshkent, 2018.- 54B.
7. Qodirov A. O'rta Osiyoda meditsinaning paydo bo'lishi. –T., 1990. -23B.
8. Qayumov A. Abu Rayhon Beruniy. Abu Ali ibn Sino. –T., 1987. -42B.
9. Dictionary, Oxford. "Learn.", 2017. -P. 475.
10. Mayer, Richard E. "Learning strategies: An overview." Learning and study strategies, 1988.-p. 11-22.
11. Weber S., Huber C. Promoting social integration through cooperative learning. A systematic review. Empirical Special Education 12.4, 2020.- P. 257-278.
12. Gudjons H. Teaching and learning in an action-oriented manner: student activation, self-activity, project work. Julius Klinkhardt, 2014.
13. Hasse C. An anthropology of learning. On Nested Frictions in Cultural Ecologies. Dordrecht, 2015. -p. 304.
14. Mietzel G. Educational psychology of learning and teaching. Hogrefe Verlag GmbH & Company KG, 2017. -p.176.
15. Groothoff H., Stallmann M. New pedagogical lexicon. Kreuz-Verlag, 1991. -p. 695.
16. Новиков А.М. Педагогика: словарь системы основных понятий. – М.: Издательский центр ИЭТ, 2013. – 268 с.
17. Антипов С. С. Воображение как свойство человека. Философская школа 5, 2018. -с. 83-94.
18. Lavrov E. Adaptive learning system based on cognitive independence. Professional Retraining and Life-Long Learning using ICT: Person-oriented Approach, 2023. -p. 113-127.
19. Steiner V. Exploratives Lernen. Zürich: Pendo 5, 2000. -p. 56
20. Ogle D. M. The know, want to know, learn strategy." Children's comprehension of text: Research into practice, 1989. -p. 205-223.
21. Vester F. Thinking, learning, forgetting: what goes on in our heads, how does the brain learn, and when does it let us down?, 1995. -p. 608.
22. Schrader J. Learning types in adults: empirical analyzes of learning and teaching in continuing vocational training. Julius Klinkhardt, 2008. -p. 264.
23. Allison M., Benjamin C. Alibi believability: Corroborative evidence and contextual factors. Behavioral Sciences & the Law 38.4, 2020. -p. 337-354.
24. Баль А. Взаимосвязь расстройств пищевого поведения и самооценки студентов в период обучения. Северо-Кавказский психологический вестник 21.1, 2023. -с.16-23.
25. Макарова Е. А. Теория схем: когнитивные конструкторы и типы схем. Перспективные информационные технологии и интеллектуальные системы 1, 2006. – с. 18-26.
26. Skinner, B. F. A world of our own. European Journal of Behavior Analysis 15.1, 2014. -p. 21-24.
27. <https://web.archive.org/web/20120601050650/http://jhp.sagepub.com/content/31/1/114.abstract>